

## O‘ZBEKISTONDA CHAKANA BANK XIZMATLARI MOHIYATI VA AHAMIYATI

Assistent: **D. Xaitboyeva**

Toshkent amaliy fanlar universiteti

***Annotatsiya:** Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan tijorat banklarida chakana bank xizmatlari amaliyoti haqida bo‘lib, unda bugungi kundagi tijorat banklari tomonidan ko‘rsatilayotgan chakana bank xizmatlari kamchiliklar, yutuqlar va xorij tajribasini qo‘llashda qaysi jihatlari mamlakatimiz iqtisodiy muhiti uchun munosib ekanligi haqida qisqacha fikr bildirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Chakana bank xizmatlari, masofaviy bank xizmatlari, mobil banking internet banking, bank-mijoz online xizmatlar.*

### **Kirish**

Bugungi raqamli iqtisodiyot, yirik va kichik biznesning rivojlanish tendentsiyalari tijorat banklarida bank xizmatlarining takomillashishi zaruratiga olib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini rivojlantirish oldida turgan asosiy vazafalaridan biri bu bank xizmatlari sifatini oshirish, xizmatlar ko‘lamini kengaytirish va ularni rivojlangan davlatlar banklari darajasiga yetkazishdan iborat.”2017-2021 yillarda qabul qilingan Harakatlar Strategiyasi “da bank tizimini isloh qilish masalarida tijorat banklarida raqamli texnologiyalarni qo‘llash va masofaviy bank xizmatlarini takomillashtirish borasida yo‘nalishlar belgilangan. Ayni damda mamlakatimizda banklararo raqobat sharoitida aholiga zamonaviy bank xizmatlarini ko‘rsatish talabi oshmoqda.

Chakana bank xizmatlari – bu tijorat banklarida jismoniy va yuridik shaxslarga to‘lovlarni amalga oshirish uchun ko‘rsatiladigan barcha xizmatlar hisoblanadi.


### **Tahlil va natijalar**

Misol uchun Turonbankda chakana bank xizmatlari borasida ko‘plab amaliy ishlar bajarilgan. Bu borada bank moliya bozorining eng jadal rivojlanayotgan segmenti, ya‘ni chakana xizmatlari sifati va ko‘lamini oshirish maqsadida, mijozlarga tezkor va qulay xizmat turlarini taklif etib kelmoqda.

Innovatsion xizmat turlaridan foydalangan holda o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatishni yanada ommalashtirish maqsadida respublikaning barcha xududlarida 24/7 tizimida faoliyat yurituvchi “Avtomatlashtirilgan to‘lov markaz”lari joriy etilib, ularda jami 60 ta milliy valyuta, 28 ta milliy va xorijiy valyutada xizmat ko‘rsatuvchi bankomatlar

hamda 214 avtomatlashtirilgan o'z-o'ziga xizmat ko'rsatuvchi kiosklar o'rnatilgan. Shuningdek, Turonbank tijorat banklari o'rtasida birinchi bo'lib "MasterCard", "UnionPay", "Humo" va "UzCard" to'lov tizimlariga mansub to'lov kartalarini bir bankomat yoki terminalda xizmat ko'rsatish amaliyotini joriy qilgan.

Bugungi globallashuv bank xizmatlarining sifatiga va tezligiga ega bo'lishni talab qilmoqda. Chakana xizmatlarning o'rni bugungi kunga kelib mobil ilovalar egallab bormoqda. Chakana bank xizmatlarini mohiyatan tasniflaydigan bo'lsak, bu asosan banklar tomonidan to'lovlarni amalga oshirishda ma'lum haq evaziga to'lovlarni amalga oshirish uchun ko'rsatiladigan xizmatlar hisoblanadi. Bu xizmatlardagi bugungi kundagi asl muammo navbatlar hisoblanadi. Bank mobil ilovalari bu navbatlarni va xodimlarga qo'shimcha haq to'lashni kamaytiradi. Quyidagi jadvalda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanishning davriy ko'rsatkichlarini ko'rishingiz mumkin:



**1-rasm. 2008-2019 yillarda mobil banking xizmatidan jismoniy shaxslarning foydalanish darajasi ko'rsatkichi**

Yuqorida ko'rinib turganidek 2008 – yilda mobil banking xizmatidan foydalannaslik ko'rsatkichi qariyb 71,3 foiz bo'lgan 2019-yilda bu ko'rsatkich 37,7 foizga yetgan. Bugungi kunga kelib qamrov darajasi mobil banking xizmatlaridan foydalanish 85 foizga yetgan. Zamonaviy axborot texnologiyalari va mobil bank xizmatlari orqali tijorat banklari chakana xizmatlarini diversifikatsiyalab mijozlarni jalb qilish strategiyasi ishlab chiqishmoqda. Shuningdek har bir bank o'z saytida bank va mijozlarga oid yangiliklar, hujjatlar va foizlar haqida ma'lumot berib bormoqda.

Aholi orasida internetdan foydalanish ko'lami ortgandan so'ng "mobil banking" "SMS banking" xizmatlari rivojlanish tendensiyasi oshdi. Bank xizmatlarini yillar

kesimida tahlil qilsak O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotiga ko‘ra, 2018 yil yakunida tijorat banklari tomonidan jalb etilgan depozitlarning umumiy hajmi 2017 yilga nisbatan 25,2 foiz oshib, 44,6 trln. so‘mni tashkil etgan. Shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalangan holda ko‘rsatilayotgan bank xizmatlari sifati va ko‘lamining kengayishi hisobiga 2018 yilda bank xizmatlari hajmi 1,2 barobar oshib, ularning jami moliyaviy xizmatlar tarkibidagi ulushi 88 foizga yetgan va foydalanuvchilar soni o‘shish dinamikasiga ega. Shu o‘rinda chakana bank xizmatlari orqali ko‘plab banklar faoliyati yaxshilanib borilyotganini ta’kidlasak bo‘ladi. Misol keltirib Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy bankini keltirib o‘tsak bo‘ladi. 2002 yildan boshlab, Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki tomonidan jismoniy shaxslarga xalqaro tizimlar orqali amalga oshiriladigan tezkor pul o‘tkazmalarni jo‘natish va qabul qilish bo‘yicha xizmatlari ko‘rsatilmog‘da. Hozirgi kunda joylardagi pul o‘tkazmalari amalga oshirish xizmati ko‘rsatish bo‘yicha 95ta shahobchada jismoniy shaxslar “Aziya Ekspres”, “Western Union”, “MoneyGram” va “Zolotaya Korona” kabi tizimlarning xalqaro pul o‘tkazish tizimlari orqali o‘z mablag‘larini chet elga jo‘natish va qabul qilish imkoniyati mavjud. Shu o‘rinda shuni eslatib o‘tishimiz kerakki, “Aziya Ekspres” xalqaro pul o‘tkazish tizimi O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankining Rossiya federatsiyasidagi “Aziya-Invest bank” sho‘ba aksiyadorlik-tijorat banki tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, bu tizim orqali jismoniy shaxslarning pul mablag‘lari jo‘natilishi ko‘zda tutiladi. Bosh yo‘nalish –Rossiya Federatsiyasi bilan O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasidagi jo‘natmalardir. “Aziya-Ekspres” tizimi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining hududiga yuborilgan pul jo‘natmalari O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy bankining filiallar tarmog‘i orqali amalga oshiriladi va bunga bor yo‘g‘i 2 daqiqadan 10 daqiqagacha bo‘lgan vaqt sarflanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)**

1. Ikramova N.R. O‘zbekistonda chakana bank xizmatlari: xorij tajribasi va rivojlanish istiqbollari // “Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2014 yil, 1-bet.;
2. Трофимов Д. В. Конкуренентоспособност розничних банков [Електронний ресурс] / Д. В. Трофимов// Управление экономическими системами. – 2013. – №58. – Режим доступа: <http://uecs.ru/finansi-i-kredit>;
3. Никоноров В. В. Развитие розничних услуг коммерческих банков как основа повышения их конкурентоспособности [Текст]: автореф. канд. экон. наук: 08.00.10. - Волгоград: 2008, с. 6.;
4. Бекчанов М., Абдурахманов Р. Пластик карта-замонавий хисоб-китоб воситаси. // Бозор, Пул ва Кредит. №9. 2012. Б.14.;
5. Омонов А.А. Тижорат банкларининг ресурсларини самарали бoshqарish масалалари. 08.00.07 – «Молиуа, пул муомаласи ва кредит» иqtисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун таqдим етилган диссертациуа автореферати. Toshkent, 2008, 24-25-бет.;
6. Алиqориев О. Тижорат банкларида молиуавий хизмат турларини ривожлантириш йo‘налишлари. иqt. фан. ном. ... дис. автореф. – Toshkent, 2011. - 28 б.
7. Гончарук С. А. Институционалне аспекти развитиуа сегмента розничних банковских услуг: дис. канд. экон. наук: 08.00.10 / Сев.-Осет. гос. унт им. К.Л. Хета-гурова - Шахти, 2018. - 183 с
8. Efma-Infosys Finacle Innovation таdqiqоти, 2019 йил.
9. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) – Ўзбекистон Республикаси Марказий Банки Расмий сайти